



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING FARMOYISHI

2024-yil 12-iyul

58-6-81-F/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Mingbuloq tumanida joylashgan jomye masjidlari hududlarida 3,27 “To‘xtash ta’qiqlangan” yo‘l belgilarini o‘rnatish hamda avtoturargohi mavjud bo‘lmagan masjidlarda juma namozi vaqtlarida xarakatni vaqtinchalik cheklashga ruxsat berish maqsadida;

1. Namangan viloyati Ichki ishlar boshqarmasi jamoat xavfsizlik xizmati yo‘l xarakati xavfsizligi boshqarmasi boshlig‘ining 2024-yil 10-iyuldagi “Mingbuloq tumanida joylashgan jomye masjidlari hududlarida 3,27 “To‘xtash ta’qiqlangan” yo‘l belgilarini o‘rnatish hamda avtoturargohi mavjud bo‘lmagan masjidlarda juma namozi vaqtlarida xarakatni vaqtinchalik cheklashga ruxsat berish to‘g‘risida”gi 24/6-2086-sonli xati asos uchun qabul qilinsin.

2. Mingbuloq tumanida joylashgan jomye masjidlari hududlarida fuqarolar havfsizligini ta’minlash maqsadida, 3,27 “To‘xtash ta’qiqlangan” yo‘l belgilarini o‘rnatish hamda avtoturargohi mavjud bo‘lmagan masjidlarda juma namozi vaqtlarida xarakatni vaqtinchalik cheklashga ruxsat berilsin.

3. Tuman ichki ishlar bo‘limi (D.Karimov)ga:

- xarakat vaqtinchalik cheklangan vaqtda avtotransport vositalarini aylanma xarakatlanishini tashkil etish bo‘yicha belgilangan tartibda chora-tadbirlar hamda sxemasini ishlab chiqish va tasdiqlash;

- tasdiqlangan sxema bo‘yicha avtotransport vositalarining harakatlanishini tashkil etish;

- transport vositalari harakatlanish davrida harakat havfsizligi, fuqarolar hamda yong‘in havfsizligini ta’minlash, jamoat tartibini saqlash vazifalari topshirilsin.

4. Tuman hokimligi axborot xizmati (Sh.Kenjayeov) va “Mingbuloq” gazetasi (Q.Akbarov)ga masjidlar oldilarida 3,27 “To‘xtash ta’qiqlangan” yo‘l belgilarini o‘rnatish hamda avtoturargohi mavjud bo‘lmagan masjidlar hududlarida juma namozi vaqtlarida xarakatni vaqtinchalik cheklanishi to‘g‘risida gazeta ro‘znomalari va tuman hokimligi rasmiy veb sayti orqali keng yoritish tavsiya etilsin.

5. Mazkur farmoyish ijrosini ta’minlash tuman hokimining o‘rinbosari X.Boylaroy, tuman IIB boshlig‘i D.Karimov zimmlariga yuklansin.

Tuman hokimi



N.Xudoyberdiyev